

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



TOSHKENT-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARINING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE‘LLARINING IZOHLI
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna
HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM
MISOLIDA).....54

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

Sanjarbek Davletov-

Ma'mun universiteti Tarix kafedrasi professori,
tarix fanlari doktori (DSc), professor, Xiva, O'zbekiston
E-mail: sdavletov7722@gmail.com

Kamronbek Davlatov-

Xalqaro Munosabatlar va Siyosat Maktabi magistranti,
ECNU, Shanxay, Xitoy
E-mail: kamronbekdavlatov1@gmail.com

YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362988>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining Markaziy Osiyo mintaqasidagi mintaqaviy integratsiya va hamkorlikni mustahkamlashdagi o'rni tahlil qilinadi. 2016-yildan buyon amalga oshirilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat natijasida mintaqaviy diplomatik aloqalar faollashdi, iqtisodiy va infratuzilmaviy hamkorlik kengaydi, hamda chegara va transchegaraviy resurslarga oid nizolar bosqichma-bosqich hal etila boshlandi. Maqolada aynan O'zbekiston tashabbuslari bilan shakllangan yangi muloqot formatlari, xususan, "Markaziy Osiyo maslahat uchrashuvlari" orqali integratsiyaning institutsional asoslari mustahkamlanayotgani yoritiladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, tashqi siyosat, Markaziy Osiyo, mintaqaviy integratsiya, hamkorlik, diplomatiya.

Sanjarbek Davletov-

Professor of the Department of History at Mamun University,
Doctor of Historical Sciences (DSc), Professor, Khiva, Uzbekistan

Kamronbek Davlatov-

Graduate student of School of Politics and International Relations,
ECNU, Shanghai, China,

REGIONAL INTEGRATION AND COOPERATION IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article analyzes the role of New Uzbekistan's foreign policy in strengthening regional integration and cooperation in Central Asia. Since 2016, the implementation of an open and pragmatic foreign policy has intensified regional diplomatic relations, expanded economic and infrastructural cooperation, and gradually resolved border and transboundary resource-related disputes. The paper particularly highlights Uzbekistan's initiatives in launching new dialogue formats - most notably the "Central Asian Consultative Meetings" - which have laid the institutional foundations for integration.

Keywords: New Uzbekistan, foreign policy, Central Asia, regional integration, cooperation, diplomacy.

Санжарбек Давлетов-
профессор кафедры истории Университета Мамун,
доктор исторических наук (DSc), профессор, Хива, Узбекистан
Камронбек Давлатов-
Магистрант Школы политики и международных отношений,
ECNU, Шанхай, Китай

РЕГИОНАЛЬНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ И СОТРУДНИЧЕСТВО ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль внешней политики Нового Узбекистана в укреплении процессов региональной интеграции и сотрудничества в Центральной Азии. С 2016 года реализация открытой и прагматичной внешней политики способствовала активизации дипломатических связей, расширению экономического и инфраструктурного взаимодействия, а также поэтапному разрешению пограничных и трансграничных споров. Особое внимание уделяется инициативам Узбекистана по созданию новых форматов диалога, в частности, «Консультативных встреч Центральной Азии», как основы институционализации интеграции.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, внешняя политика, Центральная Азия, региональная интеграция, сотрудничество, дипломатия.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatida mintaqaviy integratsiya va hamkorlikni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch va sheriklik asosidagi aloqalarni tiklash hamda mustahkamlash orqali mintaqada barqarorlik, xavfsizlik va taraqqiyotga xizmat qiluvchi yangi muloqot maydonlari shakllandi. Ayniqsa, 2016-yildan buyon olib borilayotgan tashqi siyosiy yondashuv tufayli Markaziy Osiyodagi savdo-iqtisodiy aloqalar hajmi sezilarli darajada ortdi, chegaraviy masalalar hal etila boshlandi, va diplomatik faollik yangi bosqichga ko‘tarildi. Xorijiy mutaxassislar, olimlar so‘nggi yillarda Markaziy Osiyoning ahamiyati tobora ortib borayotgani, Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari avj olishida O‘zbekiston o‘rni beqiyos ekanini ta’kidlashadi.

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston “Markaziy Osiyo maslahat uchrashuvlari” kabi yuqori darajadagi tashabbuslar orqali mintaqaviy muloqotni institutsionallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Qolaversa, “Maslahat uchrashuvlari” formati doirasida, 2024-yilda Ostona qabul qilingan “Markaziy Osiyo-2040” konsepsiyasi mintaqa davlatlarining integratsiyani chuqurlashtirishga bo‘lgan qat’iyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning Qirg‘iziston va Tojikiston bilan bo‘lgan uzoq yillik chegaraviy nizolarni hal etilishi, mamlakatlar o‘rtasidagi aholi o‘tkazish va tovarlar tranziti punktlarini qayta ochishi, O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida milliy ID kartalarni tan olinilishi kabi yutuqlar mintaqaviy ishonch va barqarorlik sezilarli darajada oshganidan dalolat beradi[1]. Natijada, ushbu davlatlar chegaralarini kesib o‘tuvchi aholi soni sezilarli darajada oshib mintaqaviy qardosh millatlarni yanada yaqinlashtirdi.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Markaziy Osiyodagi mintaqaviy integratsiya jarayonlari, ayniqsa O‘zbekiston tashqi siyosatining bu boradagi o‘rni masalasi so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotchilar uchun muhim mavzulardan biri sifatida e‘tibor qaratilgan. Xususan, Ulug‘bek Azizov o‘z tadqiqotlarida mintaqaviy jarayonlarning “ichki tashabbus” tamoyillarini tahlil qilgan bo‘lsa, Harinder Kohli, Johannes Linn, Rajat Nag Markaziy Osiyoda hamkorlikning tashqi va ichki omillarini qiyosiy baholagan. Shuningdek, M. Laruelle, E. Marat, F. Starr, A. Kazhenova kabi olim va tadqiqotchilar O‘zbekiston tashqi siyosatining transformatsion masalalari yuzasidan maqolalar e‘lon qilgan. Ushbu

ilmiy izlanishlar Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining mintaqaviy integratsiyaga ta'sirini tahlil qilishda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotda O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsion jarayonlardagi rolini chuqur tahlil qilish uchun ilmiy jihatdan asoslangan aralash uslub qo'llanildi. Avvalo, hujjatlar tahlili uslubi orqali O'zbekistonning mintaqaviy integratsiya sohasidagi siyosatini shakllantiruvchi rasmiy hujjatlar, shu jumladan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", "Markaziy Osiyo-2040" konsepsiyasi va Markaziy Osiyo maslahat uchrashuvlarining qo'shma bayonotlari diqqat bilan o'rganildi. Davlat hokimiyati organlarining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, mutahassislarning mintaqaviy integratsiya bo'yicha hisobotlari tizimli tarzda tahlil qilinadi.

Statistik ma'lumotlar tahliliga asoslanib, 2016-2025-yillarda O'zbekiston va mintaqa davlatlari o'rtasidagi savdo va investitsiya oqimlarining dinamikasi, shuningdek aholi migratsiyasi asosiy ko'rsatkichlari tadqiq etiladi. Xususan, O'zbekistonning mintaqa mamlakatlari bilan ijtimoiy iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish sa'y-harakatlari tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekistonning 2016-yilgacha va keyingi davrdagi mintaqaviy siyosatidagi o'zgarishlar, shuningdek Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiya yo'lidagi jarayonlardagi yondashuvlari o'rganildi. Tadqiqotda ekspertlar baholari asos qilib olinadi. Mintaqaning yetakchi olim va mutaxassislari, siyosatshunoslari va iqtisodchilarining ilmiy ishlari, ular bilan o'tkazilgan muloqot va suhbatlar natijalari tahlilga kiritiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekistonning so'nggi yillarda olib borgan izchil siyosati Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiya yo'lidagi jarayonlarni keskin sur'atlar bilan rivojlantirishga hissa qo'shmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakat nafaqat mintaqaviy hamkorlikning yangi konturlarini shakllantirishda, balki amalga oshirilayotgan loyihalar orqali butun Markaziy Osiyoning geoiqtisodiy ahamiyatini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

Diplomatik sohada O'zbekiston 2018-yilda boshlangan Markaziy Osiyo maslahat uchrashuvlari tashabbusi bilan mintaqaviy muloqotga yangi sifat baxsh etdi. Bu forum bir qator mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar qatorida 2024-yilga kelib "Markaziy Osiyo-2040" strategik konsepsiyasini qabul qilishga muvaffaq bo'lindi[2]. Chegara masalalarini hal etish bo'yicha olib borilgan islohotlar ayniqsa diqqatga sazovordir. Hususan, mamlakatimizning sharqiy qo'shnilari bilan bo'lgan chegara muammolarini hal qilinishi; Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara muammolari O'zbekiston vositachiligi bilan yechimini topishi, eng muhimi, mintaqaviy muammolarni tashqi vositachilarsiz hal etilishi katta yutuqlardan biri deyish mumkin.

Mamlakatimizning Qirg'iziston va Tojikiston bilan 2017-2018 yillarda o'tkazgan muzokaralari natijasida bir qator chegaraviy to'siqlar olib tashlangan. Hususan, mamlakatimizning Tojikiston bilan chegarasida 17 ta chegara o'tish punktlari qayta ochildi, bu esa kunlik chegaradan o'tishlar sonini 20 000 tagacha oshirishga imkon berdi. Qirg'iziston bilan chegara o'tish punktlaridan bo'lsa kuniga 30 000 ga yaqin aholi kesib o'ta boshladi[4]. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017-2018 yillar oralig'ida O'zbekistonga qo'shni davlatlardan tashrif buyuruvchilar soni sezilarli ko'paygan: Qozog'istondan 2,3 million, Qirg'iziston va Tojikistondan har biri 1,4 million va Turkmanistondan 600 ming tashrif buyurgan[5].

Diplomatik hamkorlikka keladigan bo'lsak, ekspertlarning tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat rahbarlari, hukumatlar va tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi aloqalar chastotasining sezilarli darajada oshganligini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumotlar to'plamiga ko'ra, 2015-yilda 60 ta bunday o'zaro aloqa bo'lib o'tgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 87 taga, 2022-yilda esa 147 taga yetgan. Bu o'sish tendensiyasi 2023-yilda ham davom etib, rasmiy uchrashuvlar soni 158 taga yetgan[6].

Iqtisodiy integratsiya sohasida O'zbekistonning erishgan yutuqlari ayniqsa yorqin namoyon bo'ldi. 2016-yilda 2,5 milliard dollarni tashkil etgan mintaqaviy savdo hajmi 2023-yilga kelib, 11 milliard dollarga yetdi, bu 4,4 baravarga o'sishni anglatadi[7]. Mintaqaga jalb qilingan investitsiyalar hajmi deyarli ikki baravarga oshdi - 2016-yilda 27 milliard AQSh dollaridan 2023-yilda 50 milliard dollarga yetdi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi ham yiliga o'rtacha 9 foizga o'smoqda.

Shuningdek, qo'shma korxonalar soni ham keskin ortdi. Masalan, 2016-yildan buyon O'zbekistonda Markaziy Osiyo davlatlari kapitali ishtirokidagi korxonalar soni deyarli 6 baravarga ko'payib, 1830 taga yetgan bo'lsa, Markaziy Osiyo davlatlarida O'zbekiston kapitali ishtirokidagi qo'shma korxonalar soni 8,5 baravarga oshib, 4700 tadan ortiqni tashkil etmoqda[8].

Umumiy statistikaga qaraydigan bo'lsak, tahlillarga ko'ra, 2021-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlarning Hamkorlik Indeksi 38,4 foizni tashkil etgan bo'lib, bu 2017-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,9 foizga o'sganini anglatadi[9].

Ushbu natijalarning barchasi O'zbekistonning Markaziy Osiyo integratsiyasidagi tashabbuskor rolini ko'rsatadi. Bunday ochiqlik siyosati istiqbolda ham davom etishi belgilanmoqda. Jumladan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida Markaziy Osiyoda xalqaro huquq va mintaqadagi barcha davlatlar milliy manfaatlarini inobatga olgan holda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish masalasi ilgari surilgan. Mamlakatning izchil va strategik jihatdan muvofiqlashtirilgan siyosati nafaqat mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga, balki Markaziy Osiyoning global iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlashga ham hissa qo'shmoqda.

XULOSALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston 2016-yildan boshlab olib borgan mintaqaviy "yaxshi qo'shniçilik" siyosati tufayli Markaziy Osiyoda integratsiya jarayoni jadallashishiga olib kelgan asosiy harakatlantiruvchi kuchlardan biriga aylangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar mintaqaviy hamkorlikni tubdan qayta shakllantirib, unga yangi sifat va mazmun baxsh etdi.

O'zbekistonning ochiq va pragmatik siyosati nafaqat mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga, balki butun Markaziy Osiyoning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu natijalar umumiy holda O'zbekistonning Markaziy Osiyo integratsiyasidagi rolini tasdiqlab, mintaqaning kelajagi uchun yangi imkoniyatlar va istiqbollarni ochib berayotganini ko'rsatadi. Zero, keyingi yillarda mintaqada diplomatiyasining muhim yutuqlaridan biri ham turli formatlar kesimida diplomatik aloqalarni mustahkamlash va unda ustuvorlik mintaqani yaxlit holda namoyon etish hisoblanadi.

Iqtiboslar/References/Сноски

-
- [1] Постановление № ПП-134 от 26.04.2023. <https://lex.uz/ru/docs/6442421>
 - [2] Президент Республики Узбекистан обозначил ряд приоритетных направлений практического регионального взаимодействия. <https://president.uz/ru/lists/view/7455>
 - [3] Марказий Осиё интеграцияси: минтақанинг ўзаро боғлиқлиги бизга нима беради? <https://yuz.uz/news/markaziy-osiyo-integratsiyasi-mintaqaning-ozaro-bogliqligi-bizga-nima-beradi>
 - [4] Главной причиной разногласий в Центральной Азии было отсутствие компромисса. <https://www.gazeta.uz/ru/2020/07/14/central-asia/>
 - [5] Markaziy Osiyo Davlatlari Integratsiyalashuvi. <https://review.uz>
 - [6] Nuriddenova, A., & Arynov, Z. (2023). Central Asian regional interactions in a changing geopolitical context. Report published as part of the Kazakhstan Futures Program. Oxus Society for Central Asian Affairs.
 - [7] The Asia Today (2024). Trade volume between the countries of the Central Asian region exceeded \$11 billion. <https://theasiatoday.org/news/trade-volume-between-the-countries-of-the-central-asian-region-exceeded-11-billion/>
 - [8] Центральная Азия – ключевой вектор внешней политики Узбекистана. <https://isrs.uz/ru/maqolalar/central-asia-is-a-key-vector-of-uzbekistans-foreign-policy>
 - [9] Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni baholash. Makroiqtisodiyot va mintaqaviy tadqiqotlar instituti. https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/evaluation_cooperation

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000